

2024 йил 08 январдаги
4-11 сонли буйруқга
1-илова



“OROMGOH” BOLALARNI DAM OLISH MASKANLARIDA BAXTSIZ HODISALARDAN SUG’URTALASH BO‘YICHA

OMMAVIY OFERTA

I. Asosiy tushunchalar.

- **Sug’urtalovchi**-Tegishli turdagi sug’urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan va sug’urta shartnomasiga muvofiq sug’urta to’voni (sug’urta to’lovi) to’lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo’lgan yuridik shaxs sug’urtalovchi deb e’tirof etiladi.
 - **Sug’urta qildiruvchi** – sug’urta shartlariga (sug’urta polisiga) binoan, o’zining yoki uchinchi shaxsning mulkiy manfaatini sug’urta qildirishni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs
 - **Naf oluvchi** – Sug’urta qildiruvchi tomonidan ushbu shartlashuv (sug’urta polisi) bo’yicha sug’urta tovonini oluvchisi sifatida tayinlangan va sug’urta polisida ko’rsatilgan shaxs.
 - **Sug’urtalangan shaxs** – hayoti va sog’lig’i bilan bog’liq mulkiy manfaatlari bo’lgan hamda uning (agar sug’urta polisida naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko’rsatilmagan bo’lsa) foydasiga sug’urta shartlari tuzilgan jismoniy shaxs.
 - **Sug’urta polisi** – Sug’urtalovchining sug’urta to’voni to’lash bo’yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug’urta qildiruvchiga sug’urta mukofoti to’langandan keyin beriladigan hujjat.
 - **Sug’urta puli** – Sug’urtalovchining ushbu shartlar bo’yicha majburiyatlari hajmining chegarasini aks ettiruvchi pul mablag’lari miqdori.
 - **Sug’urta mukofoti** – sug’urta qildiruvchi tomonidan sug’urtalovchiga sug’urta shartlarida shart qilib ko’rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada to’lanadigan sug’urta uchun to’lov;
 - **Sug’urta to’voni (sug’urta to’lovi)** – sug’urta shartlarida nazarda tutilgan sug’urta hodisasi yuz berganda sug’urta qildiruvchiga (naf oluvchiga), sug’urtalangan shaxs uchun sug’urta summasi doirasida to’lanadigan pul mablag’lari summasi;
 - **Baxtsiz hodisa** – Sugurtalangan shaxs, baxtsiz hodisadan, ya’ni uning xohish-irodasiga bog’liq bo’lmagan holda behosdan, qisqa vaqt ichida tashqaridan inson tanasiga ta’sir etib shikastlovchi, ba’zi xastalikka va (yoki) o’limga olib keluvchi hodisalar.
 - **Sug’urta hodisasi** – sug’urta polisining ofertasida ko’rsatilgan va u sodir bo’lishi bilan sug’urtalovchining sug’urta qildiruvchiga sug’urta puli to’lovini amalga oshirish majburiyati kelib chiqadigan voqea.
 - **Sug’urta muddati** – Sug’urta polisida ko’rsatilgan davr. Ushbu shartnoma bilan shartlashilgan sug’urta, mazkur shartnoma kuchga kirgandan keyin sodir bo’lgan sug’urta hodisalariga nisbatan tadbiiq etiladi va sug’urta polisida ko’rsatilgan sug’urta muddati mobaynida amalda bo’ladi.
 - **Geografik hudud** – Sug’urta polisi amalda bo’ladigan hudud. Ushbu polis bo’yicha geografik hudud bo’lib O’zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

II. Sug’urta hodisalari

2. Mazkur sug’urta shartlariga muvofiq, Sugurtalangan shaxs, baxtsiz hodisadan, ya’ni uning xohish-irodasiga bog’liq bo’lmagan holda behosdan, qisqa vaqt ichida tashqaridan inson tanasiga ta’sir etib shikastlovchi, ba’zi xastalikka va (yoki) o’limga olib keluvchi hodisalardan sug’urtalangan hisoblanadi.

Sug’urta shartlarida shartlashilgan va quyidagi oqibatlarga olib kelgan baxtsiz hodisalar sug’urta hodisalari sifatida tan olinadi:

a) zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar, dori-darmonlar, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan tasodifan kuchli zaharlanish, suyak chiqishi yoki sinishi (patologik suyak sinishi bundan mustasno), kuyish, sovuq urishi, elektr toki urishi, qisilib qolish, poliomyelit bilan kasallanish (bosharti bu hodisalar sug'urta amalda bo'lgan davrda yuz bergan bo'lsa) natijasida Sug'urtalangan shaxsning salomatligi turg'un buzilishi, ya'ni shikastlangan organi ishinig buzilishi;

b) shikastlangan a'zoning ishi buzilishiga sabab bo'lmagan suyak chiqishi, sinishi, mushak, pay, paychanning butkul uzilishi, ichki organlarning shikastlanishi, yuzning yumshoq to'qimalari kuyib, jarohatlanib yoki sovuq urib kosmetik jihatdan sezilarli darajada chandiqlar yoxud pigment dog'lari hosil bo'lishi, bosh miya chayqalishi, shuningdek tana va oyoq-qo'llarning yumshoq to'qimalari shikastlanib ancha katta chandiqlar yoki keng pigment dog'lari yuzaga kelishi, tasodifan nafas yo'lga biror narsa tiqilib qolishi, quloq pardasining eshitish qobiliyati pasayishiga olib kelmaydigan darajada teshilishi, ko'zning ko'rish qobiliyati pasayishiga olib kelmaydigan darajada chuqur jarohatlanishi natijasida sog'liqning buzilishi;

d) Tabiat hodisalari natijasida (Yashin urishi, zilzila, ko'chki, tosh ko'chishi, juda kuchli shamol (dovul), suv toshqini, juda kuchli jala, do'l, sel va sel oqimi) sog'liqning buzilishi;

e) Hayvonlar tajovuzi va hasharotlar chaqishi natijasida sog'liqning buzilishi;

f) Oromgoh yoki boshqa dam olish maskanlari hududida joylashgan suv havzalariga ehtiyotsizlik tufayli yiqilishi (sirpanib yiqilishi) natijasida shikastlanish yoki cho'kishi natijasida sog'liqning buzilishi;

g) sug'urtalangan shaxsning oromgohga yoki boshqa dam olish maskanlari kelish va ketish muddatida yo'l transport hodisasi natijasida tan jarohati olishi;

h) 2-bandda ko'rsatilgan holatlar natijasida Sug'urtalangan shaxsning o'limi,

III. Istisnolar

3. Mazkur Sug'urta shartlarining 2-bandida keltirilgan hodisalardan tashqari quyidagi hollarda sug'urta hodisasi sifatida tan olinmaydi:

3.1. Agar ular quyidagilarning bevosita yoki bilvosita natijasida ro'y bergan bo'lsa:

a) har qanday harbiy harakatlar (urush e'lon qilingan yoki e'lon qilinmaganligidan qat'iy nazar), terroristik harakatlar, fuqarolik urushi, inqilob, qo'zg'olon va g'alayonlar, shuningdek ichki tartibsizliklar (mitinglar, qo'zg'olon, ish tashlash, namoyishlar);

b) tabiiy falokatlar, yadroviy portlash, va h.k.;

d) har qanday professional sport va sport qurollari ishlatiladigan o'yinlar bilan shug'ullanish (mashq qilish, ko'rgazmali chiqishlar, yig'ilishlar va hokazolar (sportga doir dars mashg'ulotlari bundan mustasno)) bilan bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarda qatnashish, turli uchish apparatlaridan foydalanish, parashyutda sakrash, tog' chang'isi va alpinizm bilan shug'ullanish, sog'lik va hayot uchun bevosita juda xavfli bo'lgan boshqa tadbirlarda qatnashish.

3.2. Yoki quyidagi sababli ro'y bergan bo'lsa:

a) epidemiya;

b) baxtsiz hodisa vaqtida sug'urtalangan shaxsning spirtli ichimlik, narkotik yoki toksik moddalar ta'siridan mast holatda bo'lganligi, transport vositasini mast holatda boshqarganligi yoki spirtli ichimlik, narkotik yoki toksik moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga transport vositasi boshqaruvini berganligini;

d) o'z joniga qasd yoki suiqasd qilganligi;

e) sug'urtalangan shaxsning harakatlari (bu harakatlarda tergov organlari yoki sud tomonidan ataylab huquqbuzarlikka yo'l qo'yish belgilari aniqlangan bo'lsa);

f) mayda bezorilik yoki mushtlashish (agar sud yoki tergov organi qaroriga ko'ra sug'urtalangan shaxs uning tashabbuskori bo'lganligi aniqlangan bo'lsa); sug'urtalangan shaxsning fuqarolik burchini bajarishi, o'zining yoki boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i, or-nomusini va obro'sini himoya qilishi bilan bog'liq bo'lgan harakatlari natijasida kelib chiqqan mojaro bundan mustasno);

g) jarohat asoratlarini davolash bilan bog'liq bo'lmagan tashxis, davolash va profilaktika (dorilarni inyeksiyasi bilan birga) tadbirlarining salbiy oqibatlarini;

h) texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va sanoat sanitariya meyorlarining qo'pol buzilishi;

i) Sug'urta polisi berilayotgan vaqtda sug'urtalangan shaxsda mavjud bo'lgan yurak qon-tomir tizimi, diabet va asab kasalliklarining zo'rayishi yoki xuruj qilishi;

j) infarkt (infarkt hech qachon baxtsiz hodisaning natijasi deb hisoblanmaydi).

3.3. Shuningdek, sug'urta qildiruvchi(naf oluvchi), sug'urtalangan shaxs quyidagi harakatlarni sodir etganida sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi va u bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi:

a) baxtsiz hodisa yuz berganligi haqida xabar sug'urtalovchiga o'z vaqtida yetkazilmasa;

b) sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini hamda uning oqibati bilan hodisa o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjat va ma'lumotlar taqdim etilmasa, yoki ataylab yolg'on dalillar taqdim etilsa:

d) sug'urtalovchiga vakolatli bo'lgan shifokor ekspertning jabrlangan shaxsni ko'zdan kechirishi uchun imkoniyat yaratish choralari ko'rilmasa.

3.4. Barcha turdagi yuqumli kasalliklar (OIV, OITS, Koronavirus, Qizamiq, Svinka, Qizilcha, Suvchechak har qanday teri va tanosil kasalliklari) baxtsiz hodisa deb hisoblanmaydi.

IV. Sug'urta mukofoti va uni to'lash tartibi

- 4.1. Mazkur sug'urta shartlari bo'yicha sug'urta javobgarligi sug'urta mukofoti kelib tushganidan so'ng kuchga kiradi va 30 kundan oshmagan muddatga amal qiladi.
- 4.2. Mazkur sug'urta shartlari bo'yicha sug'urta mukofoti to'langanligi Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) ning sug'urta shartlariga roziligini bildiradi.
- 4.3. Sug'urta pulining miqdori Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) tomonidan kelishilgan holda quyidagicha belgilanadi:

N ^o	Sug'urta puli	Sug'urta mukofoti
1	2 500 000 (ikki yarim million) so'm	50 000 (ellik ming) so'm
2	3 750 000 (uch million yetti yuz ellik ming) so'm	75 000 (yetmish besh ming) so'm
3	5 000 000 (besh million) so'm	100 000 (yuz ming) so'm
4	6 250 000 (olti million ikki yuz ellik ming) so'm	125 000 (bir yuz yigirma besh ming) so'm
5	8 750 000 (sakkiz million yetti yuz ellik ming) so'm	175 000 (bir yuz yetmish besh ming) so'm
6	10 000 000 (o'n million) so'm	200 000 (ikki yuz ming) so'm

V. Sug'urta hodisasini ko'rib chiqish va to'lash tartibi

5.1. Sug'urta qildiruvchi(naf oluvchi) yoki sug'urtalangan shaxs (agar voyaga yetgan bo'lsa), sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga baxtsiz hodisa natijasida zarar yetkazilgan hollarda sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etgan holda, voqea sodir bo'lgan kundan boshlab 30 kun ichida yozma ariza bilan murojaat etishi shart:

a) baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hamda hodisa joyi va sharoiti haqidagi ma'lumot ichida bo'lgan hujjat (sud-tibbiyot, sud, tibbiyot ekspertizasi ma'lumotnomasi, tibbiyot muassasasidan olingan ma'lumotnoma (195-forma shaklida) yoki kasallik tarixidan nusxa, sug'urtalangan shaxsning tibbiyot kartasidagi yozuvlarning nusxasi, lozim bo'lganda);

b) mehnatga layoqatsizlik varaqasi, mehnatga layoqatsizlikni yo'qotish ko'rsatilgan TMEKning ma'lumotnomasining nusxasi;

d) Sug'urtalangan shaxsning (naf oluvchining) shaxsini tasdiqlovchi hujjati;

e) Sug'urtalangan shaxsning o'limi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (o'lim holatlarida).

5.2. Sug'urta polisining 2-bandida ko'rsatilgan sug'urta voqeasi sodir bo'lganda, to'lanadigan sug'urta tovonining miqdori Sug'urtalovchi tomonidan mazkur shartlarning 4.3 bandida ko'rsatilgan sug'urta puliga nisbatan aniqlanadi.

5.3. Sug'urta to'lovi sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi) tomonidan baxtsiz hodisa buyicha 4.2 badda belgilangan barcha hujjatlar taqdim etilganidan so'ng tuzilgan Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomaga muvofiq 15 kun ichida sug'urta qildiruvchining hisob raqamiga (sug'urtalangan shaxsning shaxsiy hisob raqamiga) pul o'tkazib berish yo'li bilan to'lab beriladi.

5.4. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta polisidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6. Mazkur Sug'urta polisidan yoki unga bog'liq masalalardan, shuningdek uning ijrosi, buzilishi, tugatilishi yoki haqiqiy emas deb hisoblanishidan kelib chiqqan nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklarni hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda ular amaldagi shartnomaviy munosabatlarga oid qonunchilikka muvofiq hal etiladi.

Ushbu Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi(naf oluvchi), sug'urta shartlari to'g'risidagi shartnomaga asosan sug'urta badali to'langandan keyin beriladi.

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА
СТРАХОВАНИЯ ДЕТЕЙ ОТ НЕСЧАСТНЫХ СЛУЧАЕВ
В ДЕТСКИХ ЗОНАХ ОТДЫХА
«ОРОМГОХ»

I. Общие условия

- **Страховщик**- Страхователем признается юридическое лицо, являющееся коммерческой организацией, имеющей лицензию на осуществление соответствующего вида страхования и обязующееся выплачивать страховое возмещение (страховую выплату) в соответствии с договором страхования.
- **Страхователь**- физическое или юридическое лицо, страхующее свой имущественный интерес или имущественный интерес третьего лица по условиям страхования (страхового полиса)
- **Выгодоприобретатель**- лицо, назначенное страхователем получателем страхового возмещения по настоящему договору (страховому полису) и указанное в страховом полисе.
- **Застрахованное лицо** - физическое лицо, имеющее имущественные интересы, связанные с его жизнью и здоровьем и в пользу которого (если в страховом полисе не указано иное лицо) оформлены условия страхования.
- **Страховой полис** - документ, подтверждающий наступление обязательств Страховщика по выплате страхового возмещения, выдаваемый Страхователю после уплаты страховой премии.
- **Страховые сумма** – сумма средств, отражающая предел размера обязательств Страховщика по данным условиям.
- **Страховая премия** - плата за страхование, выплачиваемая страхователем страховщику в национальной валюте в порядке и сроки, указанные в условиях страхования;
- **Страховое возмещение (страховая выплата)**– денежная сумма, подлежащая выплате страхователю (выгодоприобретателю) в пределах страховой суммы застрахованного лица при наступлении страхового случая, предусмотренного условиями страхования;
- **Несчастный случай** – застрахованное лицо, от несчастного случая, т.е. событий, повлекших какое-либо заболевание и (или) смерть вследствие внешнего воздействия на организм человека в течение короткого периода времени.
- **Страховой случай** - событие, указанное в предложении страхового полиса, и при его наступлении страховщик обязан выплатить страхователю страховую сумму.
- **Период страхования**– Период, указанный в страховом полисе. Страхование, предусмотренное настоящим договором, распространяется на страховые случаи, произошедшие после вступления в силу настоящего договора, и действует в течение периода страхования, указанного в страховом полисе.
- **Географическая зона**– Территория, на которой действует страховой полис. В соответствии с условиями настоящего страхования, географической зоной является Республика Узбекистан.

II. Страховые случаи

2. В соответствии с условиями настоящего страхования Застрахованное лицо от несчастного случая, то есть вне зависимости от его воли, в течение короткого периода времени причинило организму человека повреждение извне, какое-либо заболевание и (или) застрахован от фатальных событий.

Страховыми событиями признаются несчастные случаи, предусмотренные условиями страхования и имеющие следующие последствия:

а) случайное тяжелое отравление ядовитыми растениями, химическими веществами, лекарственными средствами, некачественными пищевыми продуктами, вывих или перелом костей (кроме патологических переломов костей), ожоги, обморожения, поражение электрическим током, удушье, клещевой энцефалит (клещевой энцефаломиелит) или полиомиелит (при условии, что эти события произошли в период страхования) повлекшее стойкое нарушения здоровья Застрахованного, т.е. нарушения функции поврежденного органа;

б) вывих костей, перелом, полный разрыв мышц, связок, сухожилий, повреждение внутренних органов, ожоги, травмы или обморожения мягких тканей лица, повлекшие за собой косметически значимые

рубцы или пигментные пятна, травмы, сотрясения мозга, а также повреждения мягких тканей тела и конечностей, приводящие к образованию крупных рубцов или крупных пигментных пятен, случайное застревание чего-либо в дыхательных путях, перфорации барабанной перепонки настолько, что это не приводит к потере слуха, слепоте, нарушению здоровья в результате глубокой травмы, не вызывающей потери зрения;

г) ухудшение здоровья в результате природных явлений (удар молнии, землетрясение, лавина, оползень, очень сильный ветер (ураган), наводнение, очень сильный дождь, град, наводнение и селевой поток);

д) ухудшение здоровья в результате агрессии животных и укусов насекомых;

е) причинение вреда здоровью в результате падения (подскальзывания и падения) по неосторожности в водоемы, расположенные на территории лагеря или иных баз отдыха;

ж) телесное повреждение застрахованного лица в результате дорожно-транспортного происшествия в период прибытия и выезда из лагеря или других мест отдыха;

з) смерть Застрахованного лица вследствие обстоятельств, указанных в пункте 2.

III. Исключения

3. Помимо событий, указанных в пункте 2 настоящих Условий страхования, страховыми случаями не признаются следующие случаи:

3.1. Если они возникают прямо или косвенно в результате:

а) любые военные действия (независимо от того, объявлена ли война или нет), террористические действия, гражданская война, революция, восстание и массовые беспорядки, а также внутренние беспорядки (митинги, массовые беспорядки, протесты, забастовки, демонстрации);

б) стихийные бедствия, ядерный взрыв и т.п.;

г) прочее, связанное с любыми профессиональными видами спорта и играми со спортивным инвентарем (учения, выставки, собрания и т.п. (кроме спортивных занятий)) участие в мероприятиях, использование различных летательных аппаратов, занятия парашютным спортом, катанием на горных лыжах и альпинизмом, участие в других видах деятельности непосредственно опасен для здоровья и жизни.

3.2. Или если это произошло по следующей причине:

а) эпидемия;

б) в момент происшествия застрахованный находился в состоянии алкогольного, наркотического или токсического опьянения, управлял транспортным средством в состоянии опьянения либо управлял транспортным средством лицу, находящемуся под воздействием алкоголя, наркотических средств или токсических веществ, которое он дал;

г) покончили жизнь самоубийством или попытались покончить жизнь самоубийством;

д) действия застрахованного лица (если эти действия определены следственными органами или судом как признаки умышленного противоправного деяния);

е) мелкое издевательство или драка (если по решению суда или следственного органа установлено, что инициатором этого является застрахованное лицо); за исключением конфликта, вызванного действиями застрахованного лица, связанными с исполнением им гражданского долга, защитой его жизни, здоровья, чести и репутации других лиц);

ж) негативные последствия диагностики, лечения и профилактических мероприятий (в том числе инъекционных лекарственных средств), не связанных с лечением осложнений травмы;

з) грубое нарушение правил технической безопасности, охраны труда и норм производственной санитарии;

и) обострение или приступ заболеваний сердечно-сосудистой системы, диабета и нервной системы, имеющих у застрахованного лица на момент оформления страхового полиса;

к) инфаркт (инфаркт никогда не считается результатом несчастного случая).

3.3. Также не считается страховым случаем совершение страхователем (выгодоприобретателем), застрахованным лицом следующих действий и выплаты по нему не производятся:

а) если информация о наступлении несчастного случая не была доставлена страховщику вовремя;

б) не представлены документы и сведения, необходимые для установления наступления страхового случая и причинной связи между его последствиями и событием, либо если умышленно предоставлены ложные доказательства;

г) если не приняты меры, обеспечивающие возможность осмотра застрахованного медицинским экспертом, уполномоченным страховщиком.

3.4. Несчастными случаями не считаются все виды инфекционных заболеваний (ВИЧ, СПИД, Коронавирус, Корь, Паротит, Корь, Ветряная оспа, любые заболевания кожи и половых органов).

IV. Страховая премия и порядок ее уплаты

- 4.1. Страховая ответственность по настоящим условиям страхования вступает в силу с момента поступления денежных средств и действует не более 30 дней.
- 4.2. Оплата страховой премии по настоящим условиям страхования свидетельствует о согласии Страхователя (Выгодоприобретателя) с условиями страхования.
- 4.3. Размер страховой суммы определяется по соглашению между Страховщиком и Страхователем (Выгодоприобретателем) следующим образом:

Нет	Страховая сумма	Страховая премия
1	2 500 000 (два миллиона пятьсот тысяч) сум	50 000 (пятьдесят тысяч) сум
2	3 750 000 (три миллиона семьсот пятьдесят тысяч) сум	75 000 (семьдесят пять тысяч) сум
3	5 000 000 (пять миллионов) сумов	100 000 (сто тысяч) сум
4	6 250 000 (шесть миллионов двести пятьдесят тысяч) сум	125 000 (сто двадцать пять тысяч) сум
5	8 750 000 (восемь миллионов семьсот пятьдесят тысяч) сум	175 000 (сто семьдесят пять тысяч) сум
6	10 000 000 (десять миллионов) сумов	200 000 (двести тысяч) сум

V. Рассмотрение страхового случая и порядок оплаты

5.1. Страхователь (выгодоприобретатель) или застрахованное лицо (если совершеннолетнее) в случае причинения вреда здоровью застрахованного лица в результате несчастного случая, при наступлении несчастного случая должны предоставить письменное заявление и предоставив страховщику, в течение 30 дней со дня подачи заявления следующие документы:

а) подтверждающие возникновение несчастного случая, а также о месте и обстоятельствах несчастного случая документ, содержащий информацию (судебной медицины, суда, заключение медицинской экспертизы, справка из медицинского учреждения (по форме 195) или копия истории болезни, копия записей в медицинской карте застрахованного лица);

б) форма нетрудоспособности, копия справки ТМЭК о потере нетрудоспособности;

д) документ, удостоверяющий личность застрахованного лица (выгодоприобретателя);

д) Копия свидетельства о смерти застрахованного лица (в случае смерти).

5.2. При наступлении страхового случая, указанного в пункте 2 страхового полиса, размер выплачиваемого страхового возмещения определяется Страховщиком относительно страховой суммы, указанной в пункте 4.3 настоящих условий.

5.3. Страховая выплата производится в течение 15 дней в соответствии с документом о страховом случае, составленным страхователем (застрахованным лицом, выгодоприобретателем) после предоставления всех документов, указанных в пункте 4.2 о наступлении несчастного случая, и выплачивается путем перечисления денежных средств на расчетный счет, номер страхователя (номер лицевого счета застрахованного лица).

5.4. В случае досрочного отказа страхователя (выгодоприобретателя) от страхового полиса уплаченная страховщику страховая премия возврату не подлежит.

VI. Процедура разрешения споров

6. В случае невозможности разрешения споров, требований или разногласий, вытекающих из настоящего Страхового полиса или вопросов, связанных с ним, а также его исполнения, нарушения, прекращения или недействительности, они подлежат разрешению в соответствии с законодательством о действующих договорных отношениях.

Настоящий Страховой полис выдается Страхователю (выгодоприобретателю) при уплате страховой премии на основании договора об условиях страхования.